Jismoniy madaniyat yo‘nalishi bo‘yicha texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘limi muassasalarining bakalavriat ta‘limi yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha savollar bazasi

I. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo‘yicha

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini takomillashtirish bo‘yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi tizimining holati va mavjud muammolar qanday tahlil etildi?
3. Respublikada bolalarni jismoniy madaniyat ta‘limi muassasalariga qamrab olishni qanday tashkil etish mumkin?
4. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid qanday qonun hujjatlari amal qiladi?
5. Jismoniy tarbiya tizimini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadni izohlab bering?
6. Jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
7. O’zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimining vazifalariga izoh bering.
8. O’zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish bo’yicha qanday islohatlar amalga oshirilmoqda?
9. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun mohiyatini yoriting?
10. Mamlakatimizda jismoniy madaniyat ta‘limi tashkilotlarining qanday turlari faoliyat ko‘rsatmoqda?
11. O’zbekiston Respublikasida boksni rivojlantirish bo’yicha qanday islohatlar amalga oshirilmoqda?
12. O’zbekiston Respublikasida kurashni rivojlantirish bo’yicha qanday islohatlar amalga oshirilmoqda?
13. Jismoniy tarbiya va sport sinovlarini topshirish tartibi haqida ma’lumot bering. 14. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari
15. Jismoniy tarbiya va sport sub’ektlari haqida ma’lumot bering.
16. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari.
17. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari.
18. Havaskorlik sporti va professional sport haqida ma’lumot bering.(15-modda)

19. Davlat jismoniy madaniyat ta‘limi tashkilotalarida qo‘shimcha pullik sog‘lomlashtiruvchi xizmatlari ko‘rsatishga ruxsat beriladimi?

20. O’zbekiston olimpiya harakati. O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi faoliyati haqida ma’lumot bering.

21. Har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug’ullanishga bo’lgan huquqini ta’minlash.

22. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

23. Fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash.

24. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo’ravonlikka yo’l qo’ymaslik.

25. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanuvchi shaxslarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog’lig’i xavfsizligini ta’minlash.

26. Nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o’rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko’maklashish.

27. O’zbekistonning milliy sport turlari va xalq o’yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

28. Fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta’minlash Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlik doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?

29. Jismoniy tarbiya sohasida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlarni tahlil qiling?

30. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qanday asosiy PF (Prezident Farmoni) va PQ (Prezident Qarori)larini bilasiz? Ularning bosh maqsadi nimadan iborat?

31. «Besh tashabbus olimpiadasi»ning o‘tkazilishi mamlakatimizda ommaviy sportni rivojlantirishda qanday rol o‘ynamoqda?

32. Sport sohasida seleksiya (skauting) tizimining tubdan yangilanishi va raqamlashtirilishi haqida nimalarni bilasiz?

33. Maktabgacha hamda maktab ta’limi muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining sifatini oshirish va moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

34. Aholi o‘rtasida sohlom turmush tarzini targ‘ib qilishda «Sog‘lom oilya — sog‘lom jamiyat» g‘oyasi va ommaviy yurish/yugurish marafoni kabi tadbirlarning ahamiyati nimada?

35. Ixtisoslashtirilgan sport mekteblari va Olimpiya hamda Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

36. Sport sohasini moliyalashtirish, sport inshootlarini qurish va ulardan samarali foydalanishda Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmining ahamiyati qanday?
37. Sport va jismoniy tarbiya sohasini raqamlashtirish (ERP Sport va boshqa tizimlar) sohadagi qaysi muammolarni hal etishga xizmat qiladi?
38. Sizningcha, jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro maydondagi (Olimpiada, Osiyo o'yinlari) nufuziga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
39. O'zbekistonda Paralimpiya harakatini va imkoniyati cheklangan shaxslar o'rtasida sportni rivojlantirish bo'yicha qanday davlat qo'llab-quvvatlovi mavjud?
40. «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sport sinovlarini aholi o'rtasida o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima va u aholining salomatlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qiladi?

II. Bakalavriat ta'limi yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha savollar

1. Nima uchun jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbini tanlamoqchisiz?
2. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbining boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
4. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining jamiyat xayotida tutgan o'rni qanday?
5. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbining qaysi tomonlari sizga yoqadi?
6. Qaysi milliy harakatli o'yinni aytib bera olasiz?
7. Ta'limi muassasasida jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlarini bolalarning har tomonlama kamol topishidagi ahamiyatini ayting?
8. Bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda jismoniy tarbiya o'qituvchisi qaysi metodlardan foydalanishi lozim?
9. Tezkorlik sifatini oshirishda qaysi harakatli o'yinlardan faydalaniladi?
10. Milliy harakatli o'yinlardan mashg'ulotning qaysi qismida foydalaniladi?
11. Ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ommaviy tadbirlarni o'tkazish qanday tashkil qilinadi?
12. Bolalarni sport maktablariga tanlashda qanday tashxislash usullaridan foydalaniladi?
13. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi haqida gapiring.
14. Bolalarni sport maktabiga tayyorlashda shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligi qanday amalga oshiriladi?
15. Vrach-pedagog nazorati haqida ma'lumot bering.
16. Umumta'lim maktablarida maxsus tibbiy guruhlarni tashkillashdan maqsad nima?

17. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi mashg'ulotlarda AKTdan foydalanishining ahamiyati.
18. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida texnika xavfsizligi masalalari.
19. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarni shikastlanishini oldini olish.
20. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilar shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
21. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi haqida gapiring.
22. Bolalarni sport to'garaklariga jalb qilishda tanlov va oriyentatsiya.
23. Katta tanaffuslarda o'tkaziladigan attraksion o'yinlarga rahbarlik qilish.
24. Katta tanaffuslarda o'tkaziladigan milliy harakatli o'yinlarga rahbarlik qilish.
25. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga gigiyenik talablar.
26. Sport jihozlariga bo'lgan gigiyenik talablar.
27. Sport inshoatlariga bo'lgan gigiyenik talablar.
28. Chaqqonlik sifatini oshirishda qaysi harakatli o'yinlardan faydalaniladi?
29. Kuch sifatini oshirishda qaysi harakatli o'yinlardan faydalaniladi?
30. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot-tashviqot ishlarini qanday amalga oshirish kerak?
31. Texnikumda olgan bilimlaringizdan so'ng, nima uchun aynan ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qishni davom ettirishga qaror qildingiz?
32. Siz tanlagan kasbning bugungi jamiyatimiz uchun ijtimoiy ahamiyati va dolzarbligi nimada deb bilasiz?
33. Ushbu sohada siz uchun eng qiziqarli va jozibador bo'lgan yo'nalish yoki faoliyat turi qaysi? Nima uchun?
34. Kelajakda ushbu yo'nalishni bitirgach, o'zingizni qaysi lavozimda yoki sohada ko'rasiz? Aniq rejalaringiz bormi?
35. Sohangizga bo'lgan qiziqishingizni doimiy ravishda oshirib borish uchun qanday qo'shimcha manbalardan (kitoblar, ilmiy maqolalar, mutaxassislar tajribasi) foydalanasiz?
36. Sizningcha, haqiqiy soha mutaxassisi (trener, o'qituvchi yoki sport menejeri) qanday shaxsiy va professional sifatlarga ega bo'lishi kerak?
37. O'qish jarayonida yoki kelajakdagi kasbiy faoliyatingizda duch kelishingiz mumkin bo'lgan eng katta qiyinchilik nima deb o'ylaysiz va uni qanday yengmoqchisiz?
38. Texnikumdagi amaliyot jarayonida kasbingizga bo'lgan qarashingizni o'zgartirgan yoki sizni ilhomlantirgan biror voqea/holatni gapirib bera olasizmi?
39. Agar sizga ushbu sohada biror yangilik yoki loyiha joriy etish imkoniyati berilsa, birinchi navbatda nimani amalga oshirgan bo'lardingiz?
40. Nima uchun komissiya a'zolari aynan sizni ushbu talabalikka munosib deb topishlari kerak? Asosiy ustunligingiz nimada?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, ma‘suliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirishdan maqsad nima va u jismoniy madaniyat o‘qituvchisi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
2. Oldingizga qo‘ygan eng asosiy maqsad va unga erishish yo‘lida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan kichik maqsadlaringizni bayon qiling?
3. Jismoniy madaniyat o‘qituvchisi etikasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Jamoaning samarador a’zosiga aylanishda pedagogdan nimalar talab qilinadi?
5. Maqsadni to‘g‘ri shakllantirishning zaruriy talablari nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Kreativlik nima va uning pedagog faoliyatidagi a‘amiyati?
7. Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish maqsadi va mohiyati nima?
8. Vaqtni boshqarish nimaga kerak?
9. Nima uchun pedagoglik sohasida ham ta’sirchan nutqning, notiqlikning o‘rni va a‘amiyati katta?
10. Siz qarorlarni qanday qabul qilasiz? O‘zingizning tajribangizdan kelib chiqib misollar keltiring?
11. Kasbiy axloqning ahamiyati va qoidalari?
12. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillari nimalar?
13. Kasbiy sifatlar tushunchasining mazmun mohiyati nimadan iborat?
14. Shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda shaxs o‘zini o‘zi real ba‘olashi qanchalar muhim? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang?
15. Pedagogning muomala madaniyati va uning etiket jihatdan barkamol bo‘lishi lozimligi yuzasidan fikrlaringizni yoritib bering?
16. Yoshlarning ma’naviy kamol topishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar yuzasidan fikr va mulohazalaringizni bildiring. Kitobxonlikni targ‘ib qilish orqali bu muammolarga yechim berish mumkinmi?
17. Tanqidiy fikrlashning kundalik hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirib bering?
18. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotingizdagi o‘rni qanday? Siz ulardan qanday maqsadlarda foydalanasiz?
19. Sizni o‘rab turgan muhitda o‘z ishlaringizni rejalashtirib yurishingizga qaramay ayrim omillar tufayli vaqtingiz rejadan tashqari ishlarga sarflanadi. O‘z shaxsiy misolingizda shunday holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha qanday takliflarni aytgan bo‘lardingiz?
20. Muzokaralar jarayoni to‘g‘risida pedagog nimalarni bilishi kerak? (ota-onalar bilan)
21. Kasbga sadoqat, mas’uliyat va halollik – pedagoglik kasbida qanday ahamiyatga ega?

22. Rahbar va lider tushunchalari o‘rtasidagi qanday mushtarak va farqli jihatlar mavjud? Rahbarlikka munosabatingiz qanday?

23. Simpatiya, antipatiya va empatiya tushunchalari o‘zaro munosabatlarda qanday rol o‘ynashini alohida-alohida tushuntirib bering?

24. Haqiqiy lider (etakchi) qanday bo‘lishi kerak? Yetakchilikning asosiy ko‘nikmalari nimalarda namoyon bo‘ladi?

25. Mantiqiy fikrlashni qanday usullar orqali rivojlantirish mumkin?

26. Tarbiyalanuvchilar va ota-onalar jismoniy madaniyat o‘qituvchisidan, birinchi navbatda, nimani kutishadi?

27. Rezyume nima va u nima uchun kerak?

28. Pedagog rezyumesini tuzish uchun qanday tavsiyalar mavjud?

29. Kasbiy ma‘lumot olish va tayyorgarlik kasb xatoliklariga yo‘l qo‘yish, ta‘lim jarayonidan qoniqmaslik deganda nimani tushunasiz?

30. Ijodiy fikrlash, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat tushunchalarini izohlab bering? Bu xususiyatlar pedagogga qay darajada muhim?

31. Kasbiy faoliyatingizda yoki o‘qish jarayonida kutilmagan muammo (stressli holat) yuzaga kelsa, uni hal qilishda birinchi navbatda qanday choralar ko‘rasiz?

32. Jamoaviy topshiriq yoki loyihani bajarishda a’zolar o‘rtasida kelishmovchilik chiqsa, hamjihatlikni ta’minlash uchun qanday yo‘l tutasiz?

33. O‘z ustingizda ishlash va kasbiy maxoratingizni oshirish uchun oxirgi 6 oy ichida qanday yangi ko‘nikma yoki bilimlarni egalladingiz?

34. Kutilmagan vaziyatda tezkor va mustaqil qaror qabul qilishingizga to‘g‘ri kelgan real hayotiy yoki amaliyotdagi holatni gapirib bera olasizmi?

35. Mehnat va o‘quv intizomiga rioya qilish siz uchun qanchalik muhim? Intizomsiz, lekin iqtidorli hamkor/talaba bilan qanday ishlagan bo‘lardingiz?

36. Kasbiy vazifalarni bajarishda ijodkorlik (kreaktivlik) va innovatsion yondashuv nimada namoyon bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

37. Sizga topshirilgan mas’uliyatli vazifani bajara olmay qolish xavfi tug‘ilganda (vaqt yetmasligi va b.), vaziyatdan chiqish uchun nima qilasiz?

38. O‘z faoliyatingiz va bilimlaringizga nisbatan bildirilgan tanqidni (xoh ustozingizdan, xoh tengdoshingizdan bo‘lsin) qanday qabul qilasiz?

39. O‘quv jarayonida yoki amaliyotda o‘z bilim va qobiliyatingiz yetarli emasligini his qilsangiz, ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun qanday yo‘l tutasiz?

40. Kelajakda o‘z sohangizda yetakchi (liydir) bo‘lish uchun inson o‘zida qanday shaxsiy-kasbiy xususiyatlarni shakllantirishi zarur deb hisoblaysiz?

IV. Jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlash yuzasidan savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanishiga umumiy tamoyillariga tavsif bering?

2. Jismoniy tarbiyaning asosiy yo’nalishlari haqida ma’lumot bering.

3. Jismoniy madaniyatning jamiyatdagi vazifa va shakllarini tushintirib bering?

4. “Jismoniy tarbiya” atamasiga umumiy tavsif bering?
5. “Jismoniy rivojlanish” atamasiga umumiy tavsif bering?
6. Jismoniy kamolat atamasiga tushuncha bering?
7. Sport atamasiga tushuncha bering?
8. Jismoniy tarbiya vositalarini tavsiflang?
9. Jismoniy mashqlar texnikasi haqida tushuncha (texnikaning asosi, texnikaning asosiy hal qiluvchi negizi, texnikaning detallari) bering?
10. Harakat faoliyatiga o‘rgatish jarayonining umumiy tavsifini (harakat va ko‘nikmalarning shakllanishi) tushintiring?
11. Harakatlarga o‘rgatish bosqichlari, ularning vazifalari va ularni amalga oshirish yo‘llarini aytib bering?
12. Ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, ularning farq qilishi to‘g‘risida tushuncha bering?
13. Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifini keltiring?
14. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash metodlari qanday?
15. Tezkorlik qobiliyatiga umumiy tavsif bering?
16. Koordinatsion qobiliyatlariga umumiy tavsif bering?
17. Oddiy va murakkab harakat reaktsiyalarini tarbiyalash yo‘llarini tushintiring?
18. Tezkorlikni tarbiyalash metodikasi qanday?
19. Koordinatsion qobiliyatlarini tarbiyalash metodikasi qanday?
20. Chidamlilik qobiliyatiga umumiy tavsif bering?
21. Chidamlilikni turlari va ularning tavsifi keltiring?
22. Maxsus chidamlilikni tarbiyalash usullari to‘g‘risida gapiring?
23. Egiluvchanlik qobiliyatiga umumiy tavsif bering?
24. Egiluvchanlikni tarbiyalash metodikasi qanday?
25. Yozgi Olimpiya o‘yinlari to‘g‘risida gapirib bering?
26. Qishki olimpiya o‘yinlari nimalardan iborat?
27. Tabiatni sog’lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillari haqida ma’lumot bering.
28. Jismoniy tarbiya jarayonida tarbiyaning boshqa yo’nalishlarini hal qilinishi(aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, estetik tarbiya)
29. Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining shakllari.
30. Dars – jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining asosiy shakli.
31. Jismoniy tarbiya darsining klassik strukturasi (tuzilishi) qanday qismlardan iborat va har bir qismning asosiy vazifasi nimadan iborat?
32. Jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik) nima va ulardan birini (masalan, chidamlilikni) rivojlantirishning asosiy usullari qaysilar?

33. Jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida organizmda sodir bo‘ladigan fiziologik o‘zgarishlar (yurak urishi, nafas olish) va ularni nazorat qilish (pulsometriya) usullarini tushuntirib bering.

34. Jismoniy tarbiya darslarida va sport mashg‘ulotlarida shikastlanishlarning (traumatizm) oldini olish bo‘yicha qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi shart?

35. Organizmni chigal-yozdi qilish (razminka)ning mashg‘ulot oldidan fiziologik va amaliy ahamiyati nimada?

36. Harakatli va milliy o‘yinlarning o‘quvchilar yosh xususiyatlariga ko‘ra jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o‘rni qanday?

37. Jismoniy tarbiya va sportda yuklama (nagruzka) hamda dam olish (otdyx) o‘rtasidagi mutanosiblik prinsipi nima uchun muhim?

38. Nostandart yoki kam ta’minlangan sport zali sharoitida jismoniy tarbiya darsini samarali va qiziqarli tashkil etish uchun qanday metodik yechimlardan foydalanasiz?

39. O‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasini baholashda qanday pedagogik va amaliy nazorat usullari qo‘llaniladi?

40. Turli yoshdagi o‘quvchilarga (boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflar) jismoniy mashqlarni o‘rgatishda qanday farqli yondashuvlar mavjud?

Kafedra mudiri **R.Abdullayav**